

SIFAT DERIVATSIYASI

A. Abdullayev¹, Q. Begmatov², III. Boxudov³

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tildagi sifat turkumining qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi va uning turli xil usullar bilan yaratilishi xususida soʻz yuritiladi. Aytib oʻtilgan yasash usullari maqolada tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: affiksatsiya, kompozitsiya, qoʻshma sifat, juft sifat.

doi: <https://doi.org/10.2024/cpyj9v55>

Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi soʻz sifat deyiladi: qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq. Sifatlar ikki usul bilan yasaladi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari orqali. Ular quyidagicha:

Affiksatsiya usuli. Oʻzbek tilida sifat yasovchi affiksalar derivatsion qolip anchagina. Sifat yasashida asosiy sarmahsul usul affiksatsiyadir. Bu usul bilan sifat yasagan, hozirda ham yangi sifatlar yasash uchun xizmat qilayotgan affikslar 50 ga yaqin. Ularni birma-bir sanab oʻtamiz.

1. Ot +li = asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat: rasmlı, doʻppıli, gıvdalı;

2. Ot+dor;

Ser+ot;

Ba+ot= asosdan anglashilgan narsaning meʼyordan ortiq ekanligini bildiruvchi sifat: mahsuldor, nasldor, sersuv, sergoʻsht, basavlat, baquvvat;

3. Be+ot = asosdan anglashilgan narsaning yoʻq ekanligini bildiruvchi sifat: bemajol, bedin, begʻubor, berahm;

4. No+ot = 1) asosdan anglashilgan narsaga ega emaslikni bildiruvchi sifat; 2) asosdan anglashilgan belgiga qarama-qarshi belgini bildiruvchi sifat: noumid, noinsof, nomard, nomunosib, nomaʼlum, nohush;

5. Sifat+chan = asosdan anglashilgan xususiyatga moyillikni bildiruvchi sifat: kurashchan, unutuvchan;

6. Feʼl+choq, chiq, chak ;

Feʼl+qoq, gʻoq;

Feʼl+agʻon;

Feʼl+mon= asosdan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat: tortinchoq, kuyinchak, qizgʻanchiq, tirishqoq, yopishqoq, topagʻon, bilarmon, toparmon;

7. Feʼl+ -k/-q/-gʻ = asosdan anglashilgan harakat natijasi sifatidagi holat belgisini bildiruvchi sifat: egik, buzuq, yorugʻ;

¹ Abdullayev Asqar Abduhakimovich, SamDCHTI oʻqituvchisi

² Begmatov Quvonchbek Muxtarovich, SamDCHTI oʻqituvchisi

³ Boxudov III.X., d.u.n., professsor

8. Fe'l+ -kin/-qin/-g'in/-g'un = asosdan anglashilgan harakatni belgiga aylantirish: tushkun, turg'un, ozg'in;

9. Fe'l+ma = predmetning asosdan anglashilgan harakat usuli bilan yuzaga kelish belgisini bildiruvchi sifat: qovurma, qisqartma;

10. Taqlid+ildoq = asosdan anglashilgan belgiga ortiq darajada egalikni bildiruvchi sifat: chiyildoq, dirildoq, akildoq;

11. Ot+simon = asosdan anglashilgan narsaga o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifat: sharsimon, kumushsimon, odamsimon;

12. Ot+parvar = asosdan anglashilgan narsani sevishni bildiruvchi sifat: xalqparvar, insonparvar, vatanparvar; va hokazo.

Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma va juft sifat hosil bo'ladi.

Qo'shma sifat. Qo'shma sifat quyidagi qoliplar asosida hosil bo'ladi:

1. Ot+ot: devsifat, dilorom, sohibjamol, otashnafas;

2. Sifat+ot: sho'rpesheona, shirinsuxan, sho'rtumshuq, balandparvoz;

3. Ot+sifat: yoqavayron, tepakal, jig'ibiyron, xudobezor;

4. Ravish+ot: hozirjavob, kamgap, kamqon, kamxarj;

5. Ravish+fe'l: tezpishar, ertapishar, cho'rtkesar;

6. Fe'l+fe'l: yebto'ymas;

7. Olmosh+ot: o'zboshimcha;

8. Ot+fe'l: tilyog'lama, gadoytopmas, tinchliksevar;

9. Olmosh+sifat: o'zbilarmon;

10. Son+ot: ikkiyuzlamachi, qirqyamoq.

Juft sifat. Juft sifat tarkibidagi so'zning xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Har ikki qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifat:

a) Qismlari sinonim: aql-hushli, sog'-salomat, yakka-yolg'iz;

b) Qismlari antonim: achchiq-chuchuk, baland-past, vayron-obod, issiq-sovuq;

c) Qismlari ma'noviy yaqin: mo'min-qobil, och-yalang'och, soya-salqin, xor-zor, ezma-churuk.

Bir qismi mustaqil holda ishlatiladigan juft sifat: aralash-quralash, mast-alast, ilma-teshik, tuppa-tuzuk, entak-tentak, xom-xatala, qora-qura, yamoq-yasoq.

Har ikkala qismi mustaqil holda ishlatilmaydigan sifat: aji-buji, aloq-chaloq, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o'poq-so'poq, ilang-bilang.

Boshqa turkumga xos so'z konversiya yo'li bilan sifatga o'tishi ham mumkin. Bu sifatlashuv deyiladi. Sifatlashuv tarixiy jarayon bo'lib, boshqa so'z turkumi davr o'tishi bilan sifatga aylanib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sifat tilimizda eng ko'p uchraydigan so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Uning yasash usullari juda ham turli xil bo'lib, albatta, u haqida tilshunoslar haligacha to'liq o'rganib chiqishganlari yo'q. Chunki sifat derivatsiyasi shunchalik ulkan-ki, uni o'rganib chiqish uchun bir yoki bir necha kishining umri yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun hozirda bizning oldimizda turgan maqsad bu haqida kengroq o'rganib va mushohada olib borib hali ochilmagan qirralarini yoritib berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Azim Hojiyev "O'zbek tili so'z yasalishi" "O'qituvchi" – nashriyot-matbaa ijodiy uyi –T.: 2007 166b

[2]. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" –T.: 2009, 410b

[3]. J. Buranov, A. Muminov "A practical course in English lexicology" –T.: "O'qituvchi" 1990, 163 p

[4]. Бегматов Қ. Олий таълим муассасаларида немис тилини иккинчи чет тили сифатида ўқитиш //Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajribalar, istiqbolli izlanishlar va tillarni o'qitishning innovatsion usullari. – 2022. – №. 1. – С. 265-266.

[5]. Begmatov Q. M. Methods of teaching german as a second language after first foreign language //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 648-651.

[6]. Begmatov Q. On the issue of optimizing the teaching of German as a second foreign language in a non-linguistic university //Science and practice: a new level of integration in the modern world. – 2019. – С. 29-31.